



Xomitov Komiljon Zoitovich,
i.f.d., professor, Toshkent moliya instituti



Ko'paysinova Laziza Karimovna,
katta o'qituvchi, Toshkent Arxitektura va qurilish instituti

QISHLOQ YOSHLARINI ISH BILAN TA'MINLASHNING SAMARALI IQTISODIY MEKANIZMLARI VA ULARNING ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISHGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari va ularning ishsizlikni kamaytirishga ta'siri tadqiq etilgan. Shuningdek, samarali iqtisodiy mexanizmlarni qo'llash asosida qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning zamonaviy turlari va vositalarini rivojlantirish, ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: qishloq yoshlari, ish bilan ta'minlash, samarali iqtisodiy mexanizmlar, ishsizlik, bandlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, real daromad, mehnat resurslari, investitsiya, tadbirkorlik.

Аннотация. В данной статье исследованы эффективные экономические механизмы для обеспечения занятости сельской молодежи и их воздействие на уменьшения безработицы. А также, на основе использования эффективного экономического механизма раскрыта социально-экономического значения важность развития современных видов и средств обеспечения работой сельских молодеж, профориентации, подготовка и переподготовка безработных молодеж.

Ключевые слова: сельское молодеж, обеспечение работой, эффективные экономические механизмы, безработица, занятость, стабильное экономическое развитие, реальный доход, трудовые ресурсы, инвестиции, предпринимательство.

Annotation. This article explores effective economic mechanisms for providing employment for rural youth and their impact on decreasing unemployment. And also, on the basis of the use of an effective economic mechanism, the socio-economic importance of the development of modern types and means of providing rural youth with job guidance, vocational guidance, training and retraining of unemployed youth is revealed.

Keywords: ural youth, job security, effective economic mechanisms, unemployment, employment, stable economic development, real income, labor resources, investments, entrepreneurship.

Kirish. Mehnat bozorida globallashtirish muammolari keltirib chiqarayotgan yo'llarini aniqlash, mehnat bozorini tartibga solish va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishsizlik ko'rsatkichlarining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi omilga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida mazkur ko'rsatkichning yuqori ekanligi ayrim davlatlarda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy vaziyatning ham keskinlashuviga olib kelmoqda. Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda ishsizlar soni 2016-yil – 197,7 mln.

kishini, 2018-yil – 203,8 mln. kishini tashkil etdi [7]. 2019-yilda ishsizlar soni 2018-yilga nisbatan 2,8 mln. kishiga ortishi prognoz qilingan. Bunday sharoitda ish bilan ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini qo'llash asosida mamlakatlar mehnat bozorini tartibga solishning ahamiyati tobora ortib boradi.

Barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishda aholini ish bilan ta'minlash muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'z natijasini bermoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida jahon hamjamiyatida iqtisodiy integratsiyalashuvning kuchayishi, uzoq va

yaqin qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy savdo munosabatlarining rivojlanishi, aholi daromadlarining o'sishi, aholi ish bilan bandligining oshishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini isloh qilishdagi harakatlar, qishloq joylarda biznes va tadbirkorlik muhitini rivojlantirish asosida yangi ish o'rinlarining yaratilishi, ish bilan ta'minlashning turli shakllari rivoji va boshqa yutuqlarga erishildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining real umumiy daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshdi. "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi [2].

Shu bilan birga, respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdan kelib chiqib aholining ish bilan bandligini ta'minlash masalasi o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevralda tasdiqlagan PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon asosida ishlab chiqilgan 2017 – 2021-yillarda "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi" bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'tgan besh yillikda ijtimoiy-iqtisodiyot, huquqiy-siyosiy taraqqiyotimizni belgilab beradigan hujjat hisoblanadi. Uning "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 4-qismining 4.1 bandida yaqin besh yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa: "... yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligi va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash" amalga oshirilishi muhim hisoblangan ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bunday maqsadlarga erishish uchun "...mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish" [1] kabi vazifalarni hal etish ko'zda tutiladi.

Jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bu masalalarni bozor tamoyillari asosida hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqish zaruriyati ushbu mavzudagi muammoni o'ta dolzarbligidan darak beradi.

Tadqiqotning maqsadi tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish negizida qishloq yoshlarini ish bilan bandligini ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish asosida yoshlar ishsizligini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy-tadqiqotning metodologik asoslari va usullari. Ilmiy-amaliy tadqiqotning metodologik asoslari O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotnomalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullar, innovatsion va integratsion yondashuvlar, yoshlar ishsizligini kamaytirish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda respublika qishloq hududlarida aholining, ayniqsa, yoshlarning (16 – 30 yoshdagilar) ish bilan bandligini ta'minlashda amaliy yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud.

Qishloq aholisi mehnat resurslari tarkibida yoshlar ulushi yuqori ekanligi, qishloq yoshlarining iqtisodiy faollik va ish bilan bandlik darajasining pastligi, qishloq joylarida tashkil etilgan ish joylarining asosiy qismi qisqa muddatli va mavsumiy xarakterga egaligi, ish bilan band bo'lgan yoshlarning salmoqli qismi ish haqi past bo'lgan sohalarda, norasmiy sektorda va barqaror bo'lmagan ish joylarida band etilganligi, xorijdan investitsiyalarni jalb etish bo'yicha harakatning sustligi, qayta ishlash, ijtimoiy infratuzilma va kasanachilik sohasida ish joylarini ko'paytirish imkoniyatlarining to'liq ishga solinmayotganligi, mehnat bozorida faol siyosatni moliyalashtirish va xususiy bandlik agentliklari faoliyatining sust rivojlanayotganligi hamda tashqi va ichki mehnat migratsiyalari yaxshi tashkil etilmaganligi va buning natijasida qishloq yoshlarining yaqin qo'shni davlatlarga, asosan, Rossiya va Qozog'iston davlatlariga mustaqil ish izlab chiqib ketishlarining hamon ko'payayotganligida kuzatiladi. Bu esa mehnatga layoqatli aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan ta'minlanish darajasi holatida o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2021-yilning yanvar – sentabr oylarida ishsizlik darajasi 9,4 foizni tashkil etdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 foizga, yanvar – iyun oylariga nisbatan 0,4 foizga kam. Ishga muhtoj aholi soni 1 381,1 ming kishini tashkil etdi. Ishsizlik darajasi 16 – 30 yosh bo'lgan yoshlar orasida 14,9 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa 12,8 foizni tashkil etgan [3].

Shu jihatdan, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu ko'p jihatdan O'zbekiston aholisining tarkibiga ko'ra yoshlar mamlakati qatoriga kirishi bilan izohlanadi. Respublika aholisining o'rtacha yoshi bugungi kunda 25,6 yoshni tashkil etmoqda. 2020-yilda Respublikamiz bo'yicha yoshlarning (16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar) jami aholi tarkibidagi ulushi 27% ni tashkil etdi [3].

Bozorga asoslangan iqtisodiyotda mehnat resurslari iqtisodiy o'sishga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ustuvor omil hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi inson kapitali taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi ekanligidan yaqqol dalolat beradi. Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi yoshlar eng istiqbolli toifa, uzoq muddatli intellektual investitsiya obyekti hisoblanadi. Ular bilim darajasining yuqoriligi, kuchli mehnat motivatsiyasi, jo'shqin jismoniy salohiyat, mehnat bozori talab etayotgan kasb va ixtisoslikka tez o'rganish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Qishloq mehnat bozori (QMB)da muvaffaqiyat qozonish qishloq yoshlarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini belgilab beruvchi asosiy omildir. Bugungi kunda shakllanayotgan xodimlar avlodi O'zbekiston kelajagi, uning taraqqiyotini belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda qishloq yoshlari mehnat munosabatlari kirishar ekan jiddiy muammolarga duch keladi. Yetarlicha kasbiy ko'nikmalar, ishlab chiqarish va hayot tajribasi, malaka yetishmasligi ularning asosiysidir [4].

O'zbekistonda har yili yuz minglab yangi ish o'rinlari tashkil etilayotganligiga qaramasdan mehnat resurslari miqdori muttasil o'sib borayotganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va boshqa omillar mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi unga talabdan yuqori bo'lishiga olib kelmoqda.

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari va oliygohlarni tugallayotgan yigit-qizlarni ixtisosliklari bo'yicha ish bilan ta'minlashda jiddiy muammolar mavjud. Shu bilan sobiq Ittifoq davrida va mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda aholining jadal sur'atlar bilan o'sishi hozirgi kunga kelib demografik bosimning kuchayishiga olib keldi. Bu esa yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda.

Respublikamiz qishloq joylarida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan qishloq yoshlari orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo'lmoqda. Bunday holat qishloq yoshlari o'rtasida ishsizlikni kamaytirishga ta'sir etuvchi QMBda yoshlarni ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Qishloq joylarda ish bilan bandlikning samaradorlik xususiyati ishlovchilarning mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari bo'yicha taqsimlash tuzilmasidan iborat. Hozirgi vaqtda aholining ish bilan bandligi bo'yicha iqtisodiyotdagi tarmoq tuzilishi mavjud jamiyat mehnat potensialidan foydalanish samaradorligi darajasi pastligini aks ettiradi va u tubdan o'zgartirishga muhtojdir.

Qishloq joylarda yoshlarni ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari quyida keltirilgan vazifalarni o'z ichiga oladi (1-jadval).

Mazkur yoshlarni ish bilan ta'minlashga, ishsizlikni kamaytirishga ta'sir qiluvchi mavjud vositalar QMBni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini keng darajada aks ettiradi. Ish bilan bandlikning moslashuvchanligi muammosida asosiy jihat – mehnat turini tanlash ixtiyoriyligi va mehnatni kamroq vaqt ichida ishlab, durustgina ish haqi olish imkonini beradigan qilib tashkil etishdir. Hozircha bozor vositalari to'liq ishlashiga erishilmagan ekan, davlatning muqobil tartiblarni rivojlantirishga ko'mak berishini kuchaytirish zarur.

Hozirgi kunda yoshlarni ish bilan ta'minlashning noan'anaviy shakllari – oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, kasanachilik, ish bilan bandlikning boshqa zamonaviy shakllari, xizmat ko'rsatish va qoramolchilik kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanish yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan.

Qishloq joylarida yoshlarni ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari*

Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari	1. Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish. 2. Qishloq hududlarida yoshlar uchun bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish. 3. Qishloq yoshlarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish. 4. Qishloq yoshlarini kasbga yo'naltirish, ular uchun jamoat, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarni tashkil etish. 5. Qishloq yoshlarini kasbga yo'naltirish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish. 6. Qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratish. 7. Qishloq yoshlari uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mavjudlarini saqlab qolish. 8. Yangi ish o'rinlari yaratgan korxonalarga soliq va kreditlar bo'yicha imtiyozlar berishni takomillashtirish. 9. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoatining asosiy mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab-quvvatlash. 10. Kichik biznesni va o'z-o'zini ish bilan band qilishni rag'batlantirish. 11. Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish. 12. Yoshlarning mehnat migratsiyasini legallashtirish tizimini takomillashtirish. 13. Yoshlar o'rtasida ishsizlik davomiyligini qisqartirish.
---	---

* **Manba:** Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qishloq joylarida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolarini yechish bo'yicha davlat iqtisodiy siyosatining hamma hududiy ustuvorliklarini jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur:

Birinchidan, yer munosabatlari istiqbollari, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari, iqtisodiy munosabatlar, boshqarish tizimi va boshqa elementlar bilan bir qatorda to'laqonli bo'g'in sifatida ushbu muammoni qishloqlarning hududiy rivojlanish konsepsiyasiga va istiqbolashtirish tizimiga kiritishni talab qiladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa tarmoqlarni ishlab chiqarish hajmi, daromadlar boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq hududiy-maqsadli va tarmoq dasturlariga hamda mamlakat hukumati tomonidan tayyorlanayotgan budjet rejasi va istiqboldagi strategik dasturlarga yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashning hududiy maqsadli ko'rsatkichlarini kiritishni hisobga olish zarur. Bunda qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarining usullari va vositalari o'zgaradi.

Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish va ishchi kuchi samarali taklifini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashishda iqtisodiy mexanizmlar asosiy vosita hisoblanadi (1-rasm).


Qishloq joylarda aholi, ayniqsa yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari elementlarining o'zaro munosabatlarini o'rganish nafaqat mantiqiy-funksional,

balki eng muhimi, mazkur mexanizmning asosiy xususiyatlarini to'liq ochishni ta'minlaydi [5].

Hududiy darajada soha rivojlanishining asosiy iqtisodiy-ijtimoiy parametrlari muvofiqligi, xususan, ish bilan bandlik siyosati va QMBning maqsadlari hamda ustuvor yo'nalishlari uzviy bog'liq holda muvofiqligi amalga oshirilishi kerak.

Qishloqda yoshlarning ish bilan bandligi siyosati ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari bilan qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa tarmoqlarda moliya-kredit, tarkibiy, investitsion va tashqi iqtisodiy siyosatning muvofiqligi nazarda tutiladi. Ushbu blokka birinchi navbatda, mahsulotlar sotish va sotib olishning iqtisodiy masalalari va oziq-ovqat sohasidagi intervensiyalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi va oziq-ovqat importini tartibga solish kiradi.

Ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish iqtisodiy mexanizmi bu vazifalarni qisqa muddatli yoki o'rta muddatli rejalashtirishning elementiga mos ravishda taktik ma'noga ega. Taktik vazifalar strategik maqsadlar doirasida amalga oshiriladi. Ko'p hollarda bir vazifa boshqalariga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshmaydi. Shu bilan birga mehnat bozorini tartibga solish mexanizmi o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishi, tartibga solishni aniq usullarini tanlash, mehnat bozori konyukturasidan kelib chiqqan holda oldindan mo'ljallangan masalalarni yechilishida ustuvorlikni ta'minlashdan iborat.



1-rasm. Qishloq joylarida yoshlarni ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.*

*Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmi o'zining xususiyatlariga ko'ra ishchi kuchiga talab va taklifni shakllantiruvchi elementlar majmuasidan iborat bo'lib, u yosh qishloq ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlariga muayyan ta'sir ko'rsatuvchi, uni mazmunan to'ldiruvchi iqtisodiy shakllar va omillarni o'z ichiga oluvchi elementlar majmuasidir.

Qishloq joylarida yoshlar ishchi kuchiga talabni oshirishning, ya'ni yangi ish joylarini yaratishning iqtisodiy mexanizmini tartibga solish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi:

– investitsion faollikni rag'batlantirish. Imtiyozli kreditlash tizimidan foydalangan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha rag'batlantirishni amalga oshirish; iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan kreditlar foiz stavkasini optimal o'rnatish va kreditlash bo'yicha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish; kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining real biznes loyihalarini imtiyozli kreditlash tizimini yanada takomillashtirish; kapital qo'yilmalar manbasi sifatida amortizatsion siyosatni o'tkazish rolini oshirish; amortizatsion ajratmalardan investitsion yo'nalishda to'liq foydalanishni ta'minlash; xorijiy kapital va aholi jamg'armalarini investitsion sohaga jalb qilish imkoniyatlarini rag'batlantirish;

– **faol tarkibiy siyosatni va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash.** Yoshlarni ish bilan ta'minlash jarayonlarini takomillashtirish talablarini hisobga olgan holda texnik-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollarini ishlab chiqish; davlat kafolatlaridan foydalangan holda iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari doirasida loyihalarni imtiyozli kreditlash; iqtisodiy jihatdan yoshlar uchun nufuzli ish o'rinlarini yaratishga ko'maklashuvchi investitsion va ilmiy-texnikaviy davlat dasturlarini amalga oshirishni faollashtirish; raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega moliya-

sanoat guruhlarida fan sig'imi yuqori texnologiyalar asosida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish; yirik moliya-ishlab chiqarish tuzilmalarida moliyaviy kapitalni ta'minlash bo'yicha integratsiyani yaratish;

– **yalpi talabni rag'batlantirish.** Korxonalar tomonidan aylanma mablag'larning yo'qotilishi va ishlab chiqarish quvvatining past darajasi sharoitida davlat buyurtmalarini faollashtirish asosida ham ishlab chiqaruvchilarni, ham iste'molchilarni himoyalash bo'yicha milliy mahsulotlarimizga yalpi talabni rag'batlantirish; iste'molchilar talabini rag'batlantirish uchun mehnat bahosini, ya'ni real ish haqi miqdorini oshirish zarur. Bunga ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish hamda yalpi daromadni taqsimlash jarayonida mehnatga haq to'lash ulushini ortishi asosida erishish mumkin. Moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlovchilar mehnat haqi bilan byudjet sohasida ishlovchilarning tarif setkalari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash orqali turli tarmoq ishchilari mehnatiga haq to'lashning miqdoriy farqini qisqartirish evaziga mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, daromadlarning taqsimlanishi bo'yicha aholi o'rtasida tabaqalanishni qisqartirish.

– **hududiy siyosatni takomillashtirish.** Qayta taqsimlash jarayonlarini optimallashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni

yaratish yo'li bilan dotatsiyaga tushgan hududlarni qisqartirish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy holatini tenglashtirishga va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Shuningdek, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash uchun, birinchi navbatda, mazkur jarayonni tartibga soluvchi, mehnat bozorining yoshlar segmentidagi agentlarning iqtisodiy xatti-harakatini o'zgartirish imkonini beradigan yangi institutsional muhit zarur.

Ta'kidlash lozimki, agentlarning QMBdagi, shu jumladan uning yoshlar segmentidagi xatti-harakatini tartibga soluvchi zamonaviy institutlar hozirgi vaqtda juda samarasiz amal qilmoqda. Aynan shuning uchun qishloq yoshlari, yuqorida ta'kidlanganidek, aholining mehnat bozori eng ko'p kamsitiladigan guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu ishsiz yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida QMB subyektlari (ish beruvchilar va xodimlar)ning xatti-harakatiga yalpi ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi yangi institutsional muhitni shakllantirish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi [6].

Qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish jarayonini tadqiq etish natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur jarayonga ta'sir ko'rsatishda yoshlarning raqobatbardoshligini shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning katta qismi to'plangan hududiy darajasi o'ta muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda ushbu subyektlar bajarayotgan funksiyalarni tahlil qilish qishloq yoshlarining raqobatbardoshligini shakllantirish jarayonini tartibga solishda boy berilgan imkoniyatlarni (potensial funksiyalarni) aniqlash imkonini beradi.

Bizning nazarimizda, hudud doirasida qishloq yoshlarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning asosiy funksiyalari yuqorida sanab o'tilgan tashkiliy tuzilma vakolatlarini rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Qishloq yoshlarining raqobatbardoshligini oshirish jarayonida potensial funksiyalarning amalga oshirilishi hudud doirasida ushbu jarayonning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim. Qishloq yoshlarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish jarayonida boy berilgan (potensial) funksiyalarni joriy etish va amalga oshirish uchun o'ta ta'sirli iqtisodiy usullarni qo'llash zarur.

Iqtisodiy usullarni qo'llashda investitsiyalar harakatga keltiriladi, soliqqa tortish va kreditlash

tizimining moslashuvchanligidan, ish haqi (budget sohasi xodimlari uchun), nafaqalar va boshqa moddiy ne'matlardan foydalaniladi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va tavsiyanomalar hosil qilindi:

Ishsiz yoshlarning samarali iqtisodiy mexanizmlarni qo'llash asosida raqobatbardoshligini oshirish uchun ularni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan ishchi kasblar (mutaxassisliklar)ga o'qitish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Mehnat bozorida hududlar bo'yicha joriy, yaqin, o'rta va uzoq istiqboldagi ehtiyoj yuqori bo'lgan ishchi kasblar (mutaxassisliklar)ni aniqlash. Bunda quyidagilarni hisobga olish taklif etiladi:

- mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlardagi bo'sh (bo'shaydigan) ish o'rinlari;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida ishga tushiriladigan loyihalarda yaratiladigan ish o'rinlari;

- milliy hunarmandchilik bo'yicha "Usta-shogird" an'anasi asosida o'qitish yo'nalishlari va hajmi;

- tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining chet ellik ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalariga muvofiq talab etiladigan mutaxassislik (ishchi kasb)lar;

- norasmiy sektor va iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi mutaxassis (kasb)larga bo'lgan talab.

2. Ishsiz yoshlarni kasb-hunarga o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari sonini va sifatini oshirish maqsadida nodavlat ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish hamda ularni bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirish. Bunga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin:

- mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy texnika va texnologiyalar, o'quv dasturlari asosida o'qitish imkoniyatiga hamda boshqa zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan nodavlat ta'lim muassasalari bilan o'zaro natijaga yo'naltirilgan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

- bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari tomonidan mazkur ta'lim muassasalarida mavjud ta'lim yo'nalishlari, muddatlari, ixtisosliklar va iqtisodiy imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni

ishsiz yoshlarning keng ommasiga yetkazish bo'yicha choralar ko'rish;

– bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari yo'llanmasi asosida yuborilgan ishsiz yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ketgan xarajatlarni Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirish.

3. Ichki va tashqi mehnat bozoridagi ehtiyoj tahlili hamda hudud xususiyatini inobatga olgan holda kasb-hunar kollejlari bazasida ishsiz yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha kurslarni o'z ichiga olgan zamonaviy markazlarni tashkil etish va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini mustahkamlash zarur.

Ta'lim xizmatini ko'rsatish va kasbga yo'naltirish faoliyatini amalga oshiruvchi ta'lim muassasalariga grantlar ajratish ham ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Bizningcha, bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsiz yoshlarni kasbga qayta o'qitishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'lim muassasalariga grantlar ajratish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalariga ajratilgan grantlar quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun tavsiya etiladi:

– bandlikka ko'maklashish markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsiz yoshlarni kasbga qayta o'qitishga;

– umumiy o'rta ta'lim muassasalari yoxud kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarni shaxsiy xususiyati va qiziqishlari, kasbiy qobiliyati va moyilligini baholash, ularni kasb-hunarga bo'lgan xohishi va mehnat yo'nalishlarini aniqlash, mehnat bozoridagi talab yuqori bo'lgan kasblarni tanlashda ko'maklashish va kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish bo'yicha amaliy tadbirlarni tashkil etish va ta'lim muassasalarini jihozlashga;

– hududlarda ishsiz yoshlarga tadbirkorlik ko'nikmalarini singdirish maqsadida o'quv kurslari, seminar-trening va master-klasslarni tashkil etish va o'tkazishga;

– mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan hududlarda ishsizlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash yoki qayta tayyorlash orqali ish bilan bandligini ta'minlash kabi ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirishga.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlashning samarali iqtisodiy mexanizmlari, tavsiya va takliflarning hayotda tatbiq etilishi QMBdagi vaziyatni birmuncha barqarorlashtirishga, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash darajasining oshishiga, ishsizlikni kamaytirishga, yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratishga, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va ish bilan bandligini ta'minlash hamda manfaatli tashabbuslarini rag'batlantirishga sezilarli ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. / "Toshkent oqshomi" 2018-yil, 29-dekabr. № 250 (13.847).
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari. <https://sputniknews-uz.com/20211116/toqqiz-oy-ichida-ishsizlik-darajasi-pasaydi--mehnat-vazirligi-21377112.html>
4. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Bobanazarova J.X., Irmatova I.B. Mehnat bozorining samarali rivojlanish istiqbollari (monografiya). – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2017, – B. 128.
5. Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish // Dis. i.f.d. – Toshkent, 1998. – B. 60.
6. Zikriyayev Z.M. Mehnat bozorida ishsiz yoshlar raqobatbardoshligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal, TDIU. Toshkent, 2018-yil №4.
7. World Employment and Social Outlook Trends 2017 (WESO).R.6. Elektron manba:// www.ilo.org